



Asror MO'MIN,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi



NAVOIY NAVOSIDA O'ZBEGIM VASFI

Bulbul oshyonini kuylaganday shoirlar ham, birinchi navbatda, bor mehr-u muhabbati bilan o'z vatani va xalqini vasf etadilar. Shu bois shoiring shेrlarini o'qib, uning vatanini, millatini bilsa bo'ladi. Shoirlar shahanshoji hazrat Alisher Navoiyning asarlarini o'qiganda bunga yana bir karra ishonch hosil qilamiz.

Hazrat Navoiyning Samarqandga mehri ziyoda bo'lgani tabiiy hol. Harqalay, zamin sayqali Samarqandda to'rt yil yashaganlar va umrining oxirigacha

samarqandliklar bilan xabarlashib turganlar. Asarlarida 30 nafardan ziyod samarqandlik ulug'larga tavsif berganlar. Shu bilan birga Buxoro, Kesh, Naxshab kabi shaharlarimiz, Xorazmiy, Buxoriy, Termizi, Naxshabiy, Shibliy, Farg'oniy kabi ulug'larmiz fazilatlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirganlar.

Martabasi ulug' ajdodlarimizni vasf etganda hazrat Navoiyning qalamidan sara so'zlar emas, beba ho durlar to'kiladi. Adolat posboni Amir Temur bobomizga ta'rif berar ekanlar, "Jahon xoni Temur Ko'ragon" deya sharaflaydilar. Adabiyot borasidagi salohiyatlariiga esa ajoyib baho beradilar: "Nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqe'da o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qig'oni ming yaxshi bayt aytg'oncha bor". Sohibqironning nabirasi Mirzo Ulug'bekka atab bitgan shoh bayti ko'pchiligidimzga yod bo'lib ketgan.

*Temurxon naslidin sulton Ulug'bek,
Ki olam ko'rmasdi sulton aningdek.*

Xoja Abduxoliq G'ijduvoniya mehrini shunday ifodalaganlar: "Alarning ravishi tariqatda hujjatdur. Barcha foruqning maqbulidurlar". Xivalik tanti polvon va shoир Pahlavon Mahmudga ehtirom nurlarini shunday sochadilar: "Kurashchilikda saromad bo'lib, azim shuhrat tutubdur. Tab'i ham xo'b ermish. Va nazm aytur emish". Keyin Pahlavon Mahmudning mashhur ruboysini misol keltiradilar:

*O'z nafsingga bo'lgin amir, shunda mardsan,
O'zgalarga bo'lma haqir, shunda mardsan.
Yiqilganni tepib o'tmoq mardlik emas,
Aftodag'a bo'lsang dastgir, shunda mardsan.*

Navoiy bobomizning turkiy tilga cheksiz mehri benazir "Xamsa" sida yaqqol ko'rindi. "Beshlik"ning birinchi dostoni – "Hayrat ul-abror"da turkiy so'zlarni eshitganda oladigan zavqni quyidagi baytga ko'chirganlar:

*Turk surudi bila solib qo'lum,
Qilsam ado hay tulugum, hay tulum.*

Ya'ni turkiy ohangga qo'llimni o'ynatib, "hay tulugum, hay tulum" deb kuylasam deydi. Shoiring orzusi ro'yobga chiqib, birinchi bo'lib turkiy tilda "Xamsa" bunnod etganlardan keyin iftixonini "Lison ut-tayr" dostonida quyidagi shoh baytda izhor qilgan edilar:

*Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.*

Darhaqiqat, hazrat Navoiyning turkiy tilda "Xamsa" timsolida yaratgan cho'qqisi zamindagi eng baland Jomolungma cho'qqisidan ancha balanddir. Jomolungma cho'qqisini zabit etganlar ham hazrat Navoiy tiklagan turkiy tildagi "Xamsa" cho'qqisini zabit etishi amri mahol.

XV–XVI asrlarda "o'zbek" atamasi "o'zbak" shakkida qo'llanilgan. Hazrat Navoiyning g'azallarida ham "o'zbak" shakkida berilib, xalqimizning turmush tarzi, kiyinish madaniyati va xulq-atvori yorqin bo'yoqlarda chizilgan:

*Halol ona sutidekdur gar o'zbakim tutsa,
Tobuq qilib yukunub to'stag'on ichinda qimiz.*

Yoki:
*O'zbakiy gulnori to'ndin kuydum, ammo o'lturur,
Lemuyiy terlik aning ostidakim, jonon kiyar.*

Yoki:
*O'zbak, mo'g'ul o'lg'ay aning ollida musulmon,
Bilman ani qalmoqmudur, yo'q esa tag'moch.*

Yoki:
*Agar husn o'lsa qotil zor ne darvesh-u ne sulton,
Vagar ishq o'lsa komil, yor ne hind-u ne o'zbek.*

Hazratning "o'zbagim" so'zi bor bir baytini keltirishdan oldin atoqli shoirimiz Erkin Vohidovning "O'zbegim" qasidasi yaratilish tarixiga oid fikrlarini esga olamiz: "Yoshlik devoni" ustida ishlayotgan paytlarim edi. G'azal o'qish, g'azal yozish bilan fikr-u yodim band. Ayniqsa, hazrat Alisher Navoiy g'azallarini sevib mutolaq qillardim. Hazratning bir bayti dilimga cho'g' tashlab qo'ydi.

*Shoh-u toj-u xil'atikim, men tamosho qilg'ali,
O'zbagim boshida qalpoq, egnida shirdog'i
bo'lsa bas.*

Ya'ni men uchun o'zbegimning qalpogi-yu to'ni shohlar toji-yu zarrin liboslardan ortiqdir. Hech yerda "O'zbegim" degan so'z uchragan emas edi. Navoiy hazratlari ilk bora shu so'zni ishlatgan ekanlar. Shu-shu oromim yo'qoldi. "O'zbegim" radifli qasida bitish orzu-si bilan yona boshladim. Dastlab shu radifida 9 baytli g'azal dunyoga keldi. Uni hech qayerda chiqarmadim. Ijodiy izlanishni davom ettirdim. Nihoyat, "O'zbegim" qasidasini yozildi".

Albatta, ko'pchilik "O'zbegim" qasidasini yoddan biliadi. Biz undagi ikki baytni alohida ta'kidlashni istaymiz. Chunki ularda shoiring o'zbegimga va hazrat Alisher Navoiyga bo'lgan mehr-u muhabbatni mujassam.

*Mir Alisher na'rasiqa aks sado berdi jahon,
She'riyat mulkida bo'ldi shoh-u sulton, o'zbegim.*

Va:

*Menga Pushkin bir jahon-u, menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor, ko'ksim osmon, o'zbegim.*

Ha, noyob iqtidor egasi Erkin Vohidov hazrat Navoiyning bitta bayti, bitta so'zidan ilhomlanib, umrbo-qiy qasida yaratganlar. Olimlarning aniqlashicha, hazrat Navoiy asarlarida 26000 dan ziyod o'zak so'zdan



foydalanganlar (Taqqoslash uchun: rus adibi Aleksandr Pushkin 21000, ingliz adibi Uilyam Shekspir 20000, ispan adibi Migel de Servantes 18000 so'zdan foydalangan). Gap Navoiy bobomizning so'z xazinasida boyligida emas, balki bittagina so'zi mo'jiza asarga ilhom berganligida. Hazrat Navoiyning xazinasida shunday noyob so'zlar bisyor va ular iste'dodli sohiblarini kutmoqda. Zero, buyuk shoirimizning har bitta bayti, har bir so'zi "O'zbegim"day shoh asarlarga ilhom bera oladi.

Alisher Navoiy asarlaridan lavhalar

Ma'dani inson gavhari so'z durur,
Gulshani odam samari so'z durur.

Ko'ngil maxzanining qulfi dil
Va ul maxzanning kalidin so'z bil.

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.

Adl ila olam yuzin obod qil,
Xulq ila olam elini shod qil.

Oshiq ani bilki, erur dardnok,
Ham tili, ham ko'zi-yu ham ko'ngli pok.

Gavhar balchiqqa tushgan bila qiymati
ushalmas va bahosidin qolmas.

Sanga bor esa so'z bilurdin maroq,
O'zim sori boqma, so'zim sori boq.

Sihat tilasang ko'p yema,
Izzat tilasang ko'p dema.

O'ngda turkinavoz urub doston,
Qo'zg'olib har navoda Turkiston.

Mug'anniy, kelu chert turkona soz,
Maqomi "Navo", yo'qsa "Turki hajoz".

Agar bir qavm, gar yuz, yo'qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakathi yakqalam.

Ne mulki ichraki bir farmon yibordim,
Aning zabtig'a bir devon yibordim.

Tutning bargichalik qimmati yo'qmu,
Ipak qurtichalik himmati yo'qmu?

Umidimg'a meni xursand etgil,
Umidim bulki, ummidingga yetgil.

Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'ling bir-biringizg'akim erur yorlig' ish.

Erursan shoh – agar ogohsen sen,
Agar ogohsen sen – shohsen sen.

Bu gulshan ichraki yo'qdur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur qolsa yaxshiliq bila ot.

Nekim o'z qoshingda erur navo,
Ulusqa ani ko'rma aslo ravo.

Naf'ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki bu naf o'zungga ko'prakdurur.

To hirs-u havas xirmoni barbod o'lmas,
To nafs-u havo qasri barraftod o'lmas,
To zulm-u sitam jonig'a bedod o'lmas,
El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas.

Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranj-u g'urbat havas aylama.

Musofir bo'l, ammo Vatan ichra bo'l,
Tila xilvat-u arjuman ichra bo'l.

Uzot Tengri shukri navosiga til,
Navo ortuq istar esang, shukr qil.

Navosiz ulusning navobaxshi bo'l,
Navoiy yomon bo'lsa, sen yaxshi bo'l.